ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



№10(5)
2026

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 128 sahifa,
26-oktyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (Phd), dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI
Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Karimova E.G. – Sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Raxmonova Z. A. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Sayimova D. K. – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:
Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor
Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor
Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor
Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor
Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor
Rakhmonova Z.A. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Sayimova D. K. – Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics
Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor
Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences
Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CODEPЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA

Informatika darslarida algoritmik topshiriqlar orqali 5–6-sinf o‘quvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirish metodikasi 10
Muyassar Xodjiyeva Maxmudjanovna

Maktabgacha ta’limda matematikani o‘qitishda o‘yin texnologiyalaridan foydalanish 17
Samatova Xuvvaydo Rasulovna

Asliyat va fransuzcha tarjimalardagi toponimlarning struktur-grammatik modellari 22
Valijon Mamadjonov Alixanovich

“Tarbiya” darslarida raqamli hikoyalar orqali o‘quvchilarda halollik, mas’uliyat va mehr-oqibat fazilatlarini shakllantirish 26
Abdullayeva Surayyo Babojonovna

Kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini rivojlantirishda kompetensiyaviy yondashuvning imkoniyatlari 32
Komiljonova Mohinur Alllabergan qizi

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarida kasbiy kompetentlikni takomillashtirishda modellashtirishning o‘rni 37
Mamadaliyeva Marhabo Xolmamatovna

Raqamli keyslar asosida bo‘lajak pedagoglarning ijtimoiy-pedagogik profilaktik faoliyatga tayyorgarligini takomillashtirish 43
Raximov Sardorbek Kabulovich

Teskari sinf modeli asosida amaliy mashg‘ulotlarga tayyorgarlikni tashkil etish metodikasini takomillashtirish 48
Tursunbayeva Sevinch Normurod qizi, Saidov O‘tkirjon Mallayevich

Sinfni boshqarishdagi muammolar va ularning amaliy yechimlari 53
Xidirov Baxrom Dobilovich

Loyiha texnologiyasining lingvodidaktik asoslari 60
Muhammadaziz Omonov

O‘smirlarda egoizm psixodiagnostikasi 65
Karayeva Yulduz Xushbakovna

Oliy pedagogik ta’limda mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning integrativ yondashuvga asoslangan metodikasi 69
Jo‘rayev Shuxratbek Maxamadaliyevich

Inklyuziv ta’lim sharoitida logopedik yordamni tashkil etishning tashkiliy-pedagogik mexanizmlari 73
Azimova Dilnoza Sherzodovna

Talabalarda ijtimoiy faollik ko‘nikmalarini shakllantirishning psixologik omillari 76
Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Bolalar adabiyoti vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining axloqiy tanlov kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi 81
Duschanova Nilufar Sabirbayevna, Nurmetova Nazokat Baxtiyorovna

Nogiron farzandli onalarda psixologik farovonlikning himoya resurslari: nazariy-metodologik tahlil 86
Kasimova Xulkar Atabayevna

Intellektual rivojlanishida buzilishlari bo‘lgan o‘quvchilar bilan korreksion-logopedik ishda vizual tayanchlar va muqobil kommunikatsiyani qo‘llash modeli 90
Raximova Dildora Saidbasitovna

Дети с комплексными нарушениями развития 93
Д. Т. Ганурова

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik-psixologik mohiyati ... 97
Mavlyanova Umida Sadikjanovna

Nizolarning yuzaga kelishidagi shart-sharoitlar, shaxs toifalari va ularning xislatlari 101
Choriyeva Durdona Anvarovna, Malikova Umida Nurliboy qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvahob qizi

Ijtimoiy tarmoqlarning talaba yoshlar milliy qadriyatlariga ta'sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari 106
Turg'unov Baxromjon Raximjonovich

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik yondashuvlari 112
Davlatova Dildora Nuriddinovna

Autizm spektri buzilishiga ega bolalarda nutqiy muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari 115
A. B. Mamatova

Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim sifati monitoringi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 123
Mongiyev Abdulxokim Ibragimovich

TARBIYACHI-PEDAGOGLARDA DEONTOLOGIK KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI

Davlatova Dildora Nuriddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachi-pedagoglarida deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asoslari o'rganilgan. Kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatli, fanlararo, shaxsga yo'naltirilgan, axborotli va refleksiv yondashuvlarning kasbiy burch, pedagogik axloq va amaliy qaror qabul qilish jarayonlari bilan o'zaro bog'liqligi yoritilgan. Nazariy tahlil asosida yondashuvlarning vazifalari, ularni integratsiyalash mexanizmi hamda tarbiyachining axloqiy qarorlarini baholash indikatorlari taklif etilgan. Olingan natijalar konseptual-metodik tavsiyalar sifatida taqdim etilib, ularning amaliy samaradorligini keyingi tajriba-sinov ishlari orqali o'rganish nazarda tutiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik deontologiya, deontologik kompetensiya, tarbiyachi-pedagog, metodologik yondashuv, kasbiy burch, fanlararo integratsiya, refleksiya, axloqiy qaror.

Abstract: This article examines methodological approaches to developing deontological competence in preschool educators. It discusses competence-based, systemic, activity-based, interdisciplinary, child-centred, information-based and reflective approaches. An integrated methodological framework and qualitative indicators for ethical professional decisions are proposed. The findings are presented as conceptual and methodological recommendations, with their practical effectiveness to be explored through future empirical research.

Key words: pedagogical deontology, deontological competence, preschool educator, methodological approaches, professional ethics, reflection.

Аннотация: В статье анализируются методологические подходы к развитию деонтологической компетентности воспитателей дошкольных образовательных организаций. Рассмотрены компетентностный, системный, деятельностный, междисциплинарный, личностно ориентированный, информационный и рефлексивный подходы. Предложены механизм их интеграции и качественные индикаторы профессионально-этических решений. Результаты представлены в виде теоретико-методических рекомендаций, практическую эффективность которых предполагается изучить в ходе дальнейших эмпирических исследований.

Ключевые слова: педагогическая деонтология, деонтологическая компетентность, воспитатель, методологический подход, профессиональная этика, рефлексия.

KIRISH

Maktabgacha ta'limda pedagogning kasbiy mas'uliyati bolaning xavfsizligi, sha'ni, rivojlanish ehtiyojlari va oilasi bilan hamkorlikning turli bosqichlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Deontologik talablar bolaning manfaatlarini ustuvor deb bilish, unga nisbatan adolatli va hurmatli munosabatni saqlash, maxfiy axborot bilan ehtiyotkor ishlash hamda nizoli vaziyatlarda asosli qaror qabul qilish kabi jihatlarni qamrab oladi. Kasbiy burch haqidagi bilimlarni o'zlashtirish muhim bo'lsa-da, ularni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Shu sababli deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asoslarini izchil belgilash dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasining 16.12.2019-yildagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'RQ-595-son[1] Qonuni maktabgacha ta'lim sohasidagi munosabatlarning huquqiy asoslarini belgilaydi [1]. O'zbekiston Respublikasining 01.02.2024-yildagi "Pedagogning maqomi to'g'risida"gi O'RQ-901-son[2] Qonunida pedagogning kasbiy tayyorgarligi, huquqlari va majburiyatlari masalalari tartibga solingan [2]. Ushbu huquqiy asoslar

1 https://lex.uz/docs/-4646908
2 https://lex.uz/docs/-6786401

deontologik kompetensiyani shaxsiy odob bilan bir qatorda kasbiy faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida o‘rganish imkonini beradi.

Tadqiqotning maqsadi - tarbiyachi-pedagog deontologik kompetensiyasini rivojlantirishda qo‘llaniladigan metodologik yondashuvlarni tizimlashtirish va ularning amaliy uyg‘unlashuv modelini asoslash.

Vazifalar:

- deontologiya va kompetensiya tushunchalarini aniqlashtirish;
- yondashuvlarning didaktik imkoniyatlarini qiyoslash;
- vaziyatli mashqlar va refleksiv diagnostika vositalarini tavsiflash.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Deontologiya burch va kasbiy xulq-atvor haqidagi ta’limot sifatida, kompetentlik esa nazariy bilimlarni amaliy vazifalarni bajarishda qo‘llay olish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Ilmiy manbalarda kompetensiyaviy, fanlararo, faoliyatli, axborotga asoslangan va tizimli yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari tavsiflanadi. Mazkur yondashuvlarni maktabgacha ta’lim amaliyotiga tatbiq etishda fanlararo bilimlarni bolaning ehtiyojlari bilan bog‘liq aniq pedagogik vaziyatlarni tahlil qilishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq.

NAEYCning kasbiy axloq kodeksi maktabgacha ta’lim pedagoglari uchun professional munosabatlar, majburiyatlar va axloqiy masalalarni hal etish bo‘yicha umumiy yo‘nalishlarni belgilaydi [3].

NAEYCning rivojlanish xususiyatlariga mos amaliyot konsepsiyasida pedagogik qarorlarni bolaning umumiy rivojlanish qonuniyatlari, individual xususiyatlari va ijtimoiy-madaniy sharoitlarini hisobga olgan holda qabul qilish tavsiya etiladi [4].

Professional standartlar va kompetensiyalar haqidagi hujjat pedagogik faoliyatni bilim, ko‘nikma va kasbiy qadriyatlar uyg‘unligida o‘rganishga yordam beradi [5].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Metodologik jihatdan tadqiqotda kontent-tahlil, ilmiy tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish, tizimlashtirish va vaziyatli modellashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot nazariy-tahliliy yo‘nalishda olib borilib, unda metodologik yondashuvlarni tizimlashtirish va konseptual modelni ishlab chiqishga asosiy e’tibor qaratildi. Kuzatuv, so‘rov va tajriba-sinov usullaridan foydalanish tadqiqotning keyingi bosqichlarida nazarda tutilishi mumkin. Shu bois taqdim etilgan natijalar nazariy model va uni kelgusida amaliy jihatdan baholashga oid tavsiyalardan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Deontologik kompetensiya - tarbiyachi-pedagogning kasbiy burch va axloqiy me’yorlarni anglash, muayyan pedagogik vaziyatni bolaning manfaatlari nuqtayi nazaridan baholash, asosli yechimni qo‘llash hamda uning oqibatlarini refleksiv tahlil qilishga tayyorligini ifodalovchi integrativ kasbiy sifatdir. Ushbu sifatni rivojlantirishda metodologik yondashuvlar o‘zaro uyg‘unlashib, turli didaktik vazifalarni bajarishga xizmat qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv o‘quv natijasini nafaqat “me’yorni biladi”, balki “murakkab vaziyatda me’yorga muvofiq asoslangan harakatni tanlay oladi” shaklida belgilashga yo‘naltiriladi. Shu asosda tarbiyachining axloqiy savodxonligi, kommunikativ madaniyati va qaror qabul qilish qobiliyatini birgalikda baholash imkoniyati yuzaga keladi. Tizimli yondashuv esa kasbiy bilim, motivatsiya, emotsional barqarorlik, muomala ko‘nikmasi va refleksiyani yagona jarayonning o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlari sifatida birlashtiradi.

Faoliyatli yondashuvning markazida amaliy topshiriqlar turadi. Masalan, ota-ona bolaning shaxsiy rivojlanish ma’lumotlarini umumiy guruh suhbatiga joylashni so‘raganda, tarbiyachi vaziyatning huquqiy, pedagogik va axloqiy jihatlarini o‘rganadi, mumkin bo‘lgan muqobil yechimlarni qiyoslaydi hamda muloqot uchun xavfsiz aloqa kanalini tanlaydi. Bunday topshiriqlar an’anaviy savol-javob usullarini to‘ldirgan holda kasbiy harakatlarni amaliy mashq qilish imkoniyatini kengaytiradi.

Fanlararo yondashuv pedagogika, psixologiya, etika, bolalar huquqi va kommunikatsiya sohalarini muayyan pedagogik vaziyat yechimida uyg‘unlashtiradi. Masalan, alohida ta’lim ehtiyoji bo‘lgan bolaning faoliyatga qo‘shilishida tarbiyachi metodik topshiriqlarni bolaning imkoniyatlariga moslashtirish bilan birga, unga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, oilasi bilan hamkorlik qilish va jamoa muhitini qulaylashtirishga ham e’tibor qaratadi. Fanlararo integratsiya shu tarzda kompleks qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv pedagogik talablarni bolaning yosh xususiyatlari, qobiliyati, hissiy holati va oilaviy-madaniy konteksti bilan muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Axborotli yondashuvda ishonchli manbalarni tanlash, hujjatlarni aniq yuritish, raqamli aloqa kanallarida maxfiylik va shaxsiy ma’lumotlarga ehti-

yotkor munosabatda bo‘lish muhim o‘rin tutadi. Refleksiv yondashuv esa pedagogning “Nima qildim?”, “Qaror kimga qanday ta’sir ko‘rsatdi?”, “Keyingi safar nimani o‘zgartiraman?” kabi savollar orqali o‘z kasbiy tajribasini tahlil qilishi va uni takomillashtirishiga yordam beradi.

Mazkur metodologik yondashuvlarni o‘quv-modul shaklida tashkil etish mumkin: birinchi bosqichda kasbiy burch va me’yorlarni anglash; ikkinchi bosqichda muammoli vaziyatni fanlararo tahlil qilish; uchinchi bosqichda rolli mashq va amaliy tanlov; to‘rtinchi bosqichda pedagogik faoliyatga ko‘chirish; beshinchi bosqichda qayta aloqa va refleksiv tahlil. Bosqichlarning o‘zaro uzviyligi nazariy bilimlarning amaliy xulq-atvorda namoyon bo‘lishini kuzatish va baholash uchun muhim ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval: **Metodologik yondashuvlar va ularning amaliy ifodasi**

Yondashuv	Rivojlantiradigan jihat	Metodik vosita
Kompetensiyaviy	Bilimni asosli axloqiy qarorga aylantirish	Vaziyatli topshiriq va rubrika
Tizimli	Bilim, munosabat, xulq va refleksiya uyg‘unligi	Individual rivojlanish xaritasi
Faoliyatli	Kasbiy vaziyatda to‘g‘ri harakat qilish	Rolli mashq, pedagogik simulyatsiya
Fanlararo	Etik, psixologik va huquqiy jihatlarni birlashtirish	Keysni ko‘p nuqtayi nazardan tahlil qilish
Shaxsga yo‘naltirilgan	Bolaning individual manfaatini saqlash	Individual pedagogik vaziyat
Axborotli	Ma’lumot bilan mas’uliyatli ishlash	Raqamli muloqot ssenariysi
Refleksiv	O‘z qarori oqibatini tahlil qilish	Refleksiv kundalik va mentor suhbati

Kompetensiya rivojlanganligini aniqlash uchun uchta mezondan foydalanish taklif qilinadi: kognitiv mezon (axloqiy-huquqiy vaziyatni tushuntira olish), faoliyatli mezon (bolaga zarar yetkazmaydigan va asoslangan qarorni tanlash), refleksiv mezon (qaror oqibatini xolis baholash va tuzatish). Har biri boshlang‘ich, o‘rta va yuqori darajada tavsiflanishi mumkin. Mezonlarning amaliy qo‘llanish imkoniyatlarini aniqlashtirish uchun ekspert baholash va dastlabki diagnostika ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Metodologik modelni samarali qo‘llashda rahbarning axloqiy namunasi, pedagoglar o‘rtasida ochiq muhokama, psixologik jihatdan xavfsiz muhit, muammoli holatlarni maxfiy tahlil qilish va muntazam kasbiy rivojlanish imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Bunda refleksiv baholashdan xodimlarning kasbiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash vositasi sifatida foydalanish, bola va oilaga oid ma’lumotlarning maxfiyligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tarbiyachi-pedagoglarda deontologik kompetensiyani rivojlantirishning metodologik asosi kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatli, fanlararo, shaxsga yo‘naltirilgan, axborotli va refleksiv yondashuvlarning maqsadli integratsiyasiga tayanadi. Kompetensiyaviy yondashuv yakuniy natijalarni belgilashga, tizimli yondashuv tarkibiy yaxlitlikni ta’minlashga, faoliyatli yondashuv amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, fanlararo yondashuv kompleks tahlilni amalga oshirishga, refleksiv yondashuv esa kasbiy o‘zini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Taklif etilgan modeldan maktabgacha ta’lim tashkilotlarining metodik faoliyatida hamda pedagoglarni qayta tayyorlash dasturlarida foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish tavsiya etiladi. Modelning amaliy samaradorligini baholash uchun kelgusida empirik tadqiqotlar va tajriba-sinov ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. 2019-yil 16-dekabr, O‘RQ-595-son. URL: https://lex.uz/docs/-4646908 (murojaat: 27.10.2026).
2. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2024-yil 1-fevral, O‘RQ-901-son. URL: https://lex.uz/docs/-6786401 (murojaat: 27.10.2026).
3. Ortikov O. R., Raximova D. Talabalar mafkuraviy immunitetni rivojlantirishda mahallaning roli va ahamiyati // Экономика и социум. – 2022. – № 12-1 (103). – С. 1310–1313.
4. National Association for the Education of Young Children. Code of Ethics for Early Childhood Educators. Washington, DC: NAEYC, 2025. URL: https://www.naeyc.org/resources/position-statements/code-of-ethics (accessed: 27.10.2026).
5. National Association for the Education of Young Children. Developmentally Appropriate Practice: A Position Statement. Washington, DC: NAEYC, 2020. URL: https://www.naeyc.org/resources/position-statements/dap/contents (accessed: 27.10.2026).
6. Самадов С. С. Мактабгача ёшдаги болалар ривожланишининг ёш хусусиятлари ва жисмоний тарбия машғулотлари // Science and Education. – 2022. – Т. 3. – № 5. – С. 1383–1388.
7. Gulboyev A. T. X. Ta’limda pedagogik qadriyatlar // Scientific Progress. – 2021. – Т. 2. – № 7. – B. 349–355.
8. UNESCO. Tashkent Declaration and Commitments to Action for Transforming Early Childhood Care and Education. Tashkent, 2022. URL: https://www.unesco.org/sites/default/files/medias/fichiers/2022/11/tashkent-declaration-ecce-2022.pdf (accessed: 27.10.2026).

13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi
13.00.02 Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha)
13.00.07 Ta’limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov
Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov
Musahhih: Alibek Zokirov
Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №10(5)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.